



PROFILAKTIKA INSPEKTORINING VETERENARIYA-SANITARIYA
QOIDALARINI BUZISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH FAOLIYATI.

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 315-guruh kursanti
Nazarqulov Doston*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbliji shundaki, profilaktika inspektorining veterinariya-sanitariya qoidalarini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyati jarayonida boshqa davlat organlari bilan hamkorlikdagi faoliyati, uning tushunchasi, asosiy yo'naliishlari, o'ziga xos xususiyatlari, tashkiliy-huquqiy asoslari yoritilgan. Shuningdek, profilaktika inspektorining veterinariya-sanitariya qoidalarini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyati jarayonida boshqa davlat organlari bilan hamkorlikdagi faoliyatida mavjud muammolar tahlil qilingan hamda ularning yechimlari yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация: Ilmiy maqolaning dolzarbliji: "Aholining tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash hamda xavfsizligini ta'minlash masalalari birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan olib borilgan eng muhim va ustuvor yo'naliishlardan biri bo'lgan. Bunga birinchi Prezidentimiz tomonidan yozib qoldirilgan bir nechta asarlarni ya'ni, "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "YUksak ma'naviyat - yengilmas kuch", "Ona yurtimizning bahtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir" va shu kabi boshqa asarlari orqali, o'zbek halqiga shunday mustaqillikka erishish, uni butun dunyo hamjamiyatida o'z o'rmini topishida hayotining so'ngiga qadar amalga oshirgan islohotlarida buni yaqqol misloni ko'rsak bo'ladi. Prezidentimiz SH.Mirziyoyev ham ilk bor 2016 yil 4 dekabr' kuni Prezident etib tayinlanganlarida birinchi Prezidentimiz Islom Karimov olib borgan islohotlarni davom ettirish maqsadida, halq manfaatlari yo'lida, ularning dardu-g'ami, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy mafaatlarini amalga oshirishda jamiyatning barcha jabxalarida bir qator islohotlar olib borildi. Bevosita bu islohotlar Ichki ishlar organlarida ham amalga oshirildi. CHunki keksa otaxonlarimiz, har doim duoga qo'l ochganlarida ollohdan sihat-salomatlilik hamda yurt tinchligi yo'lida ezgu niyatlar bildiradilar. SHunday ekan birinchi navbatda yurtda tinchlik bo'lib halqimizning salomatligi bo'yicha hech qanday dardu g'amlari bo'lmasa, shunda halq davlatdan rozi bo'ladi hamda yurtda tinchlik farovonlik qaror topadi.

Istiqlol yillarda O'zbekistonda oliy qadiriyat deb tan olingan inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari ta'minlanishini yanada mustahkam kafolatlash maqsadida:

birinchidan,mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini, barqaror taraqqiyotini;



ikkinchidan, Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining yo'nalishlari va prinsiplari hamda huquqiy maqomini aniq belgilashni;

uchinchidan, ularning faoliyatini yanada demokratlashtirish, ochiqlik va shaffofligini ;

to'rtinchidan, tizimga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va sohada boshqaruvni yanada modernizatsiyalashni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida jadal islohotlar amalga oshirilmoqda.

Profilaktika inspektorlarining veterinariya-sanitariya qoidalarini buzish bilan bog'liq huquqbazarliklarning oldini olish faoliyatini samarali tashkil etish eng avvalo ushbu turdag'i huquqbazarliklarni barvaqt oldini olish, ularning sodir etigan shaxslarni aniqlash hamda aybdorlarga nisbatan jazoning muqarrarligini ta'minlash borasidagi ishlarni tizimlashtirish va samaradorligini oshirishga bog'liqdir.

Biroq, shuni alovida ta'kidlash joizki, profilaktika inspektorining ushbu turdag'i huquqbazarliklarni ko'rib chiqish faoliyati, uning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'linmas ekan, ushbu faoliyatning boshqa turdag'i faoliyat turlaridan farqli tomonlari, shuningdek uning samaradorligi borasidagi nazariy va amaliyot masalalari yechimi ochiqligicha qolishi mumkin. Tadqiqotlarda mayjud munozarali vaziyat nazariy va amaliy jihatdan profilaktika inspektorlarining veterinariya-sanitriya sohasidagi huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish faoliyatini boshqa turdag'i faoliyatdan o'zaro farqlash, ularning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab olish hamda bu borada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xujjatlar tayyorlash, ularni tahlil qilish va ushbu faoliyatni rejalashtirishda muayyan ziddiyat va tushunmovchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo'layotganligini ko'rishimiz mumkin

Har qanday faoliyat turi kabi profilaktika inspektorlarining veterinariya-sanitariya sohasidagar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish faoliyati ham o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, faoliyatning ushbu jihat: a) ma'muriy xududda ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlash; b) davlat, jamiyat va inson farovonligi ta'minlash; v) davlat va jamoat tartibini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkchilikni, tabiiy muhitni turli g'ayrihuquqiy tajovvuzlardan ximoya qilish; g) veterinariya sanitariya sohasidagi huquqbazarliklarni o'z vaqtida va ob'yektiv ko'rib chiqilishini ta'minlash; d) sodir etilgan veterinariya-sanitariya sohasidagi huquqbazarliklar uchun jazoning muqarrarligini ta'minlashga xizmat qilish; ye) veterinariya-sanitariya sohasidagi huquqbazarliklar va jinoyatlarning barvaqt oldini olishni nazarda tutish; yo) fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiva qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash kabilarda namoyon bo'ladi.

Profilaktika inspektorlarining veterinariya-sanitariya sohasidagi huquqbazarlik ishlarni yuritish faoliyatining ahamiyati uning asosiy vazifalarini qay darajada hal etilishiga bog'liqdir. Bu borada ushbu faoliyatning oldida quyidagi vazifalar belgilanganligini kuzatish mumkin:

- veterinariya-sanitariya sohasidagi har bir ishning holatini o'z vaqtida, har tomonlama, to'la va ob'yektiv ravishda aniqlab chiqish;
- veterinariya-sanitariya sohasidagi ishlarni qonun hujjatlariga muvofiq hal etish;
- veterinariya-sanitariya sohasida chiqarilgan qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlash;
- veterinariya-sanitariya sohasida huquqbazarliklarning sodir etish sabablarini va shart-sharoitlarini aniqlash;



- veterinariya-sanitariya sohasidagi huquqbazarliklarning oldini olish;
- fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash;
- veterinariya-sanitariya sohasidagi ishlarni ko'rib chiqishda qonun ustunligini ta'minlash va mustahkamlash.

Ichki ishlar organlari O'zbekiston Respublikasida fuqarolarni huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, jamoat tartibini saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, sog'lom turmush sharoitlarini yaratishda shaharlar va boshqa aholi punktlarida obodonlashtirish qoidalarini buzish huquqbazarligini oldini olish ishlarini amalga oshiradi.Ushbu faoliyatni tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabr kuni qabul qilingan "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi 1qonunning 2-moddasida Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat ekanligini nazarda tutadi.

Profilaktika inspektorlari o'zlariga biriktirilgan ma'muriy xududda sodir etilgan veterinariya-sanitariya sohasidagi huquqbazarliklarni aniqlashda bir qator chora-tadbirlarni amalga oshiradilar.

Xususan: profilaktika inspektorlari veterinariya-sanitariya sohasidagi xuquqbazarliklarni aniqlash quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq:

□ IIVning 2017 yil 12 iyuldagagi 151-sonli buyrug'i talablari asosida ma'muriy hududni har kuni profilaktik ko'zdan kechirish, hamda yil davomida xududdagi barcha turar-joylar (xonodon, uy, xona va boshqa obekt) ga kamida ikki marotaba tashrif buyurish;

□ ma'muriy xududda huquqbazarlik sodir etilishi ehtimoli yuqori bo'lgan joylar, jumladan sanitariya holati buzilgan joylarda ma'muriy hududga tutuash dala maydonlarida yaqin hududlardagi baliqchilik, parrandachilik firmalarida, ov quroliga ega bo'lgan, huquqbazarlik sodir etishga moyil shaxslar yashaydigan turar-joylarni doimiy ravishda nazorat qilish;

□ fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi bilan bog'liq ariza, shikoyat va takliflarni ko'rib chiqish;

□ huquqbazarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar to'g'risida yurituvidagi ish materiallarini kuzatish va ular bilan tanishib chiqish va boshqa kundalik vazifalar.

Ilmiy o'rganishimiz natijasida profilaktika inspektorining veterinariya-sanitariya sohasidagi huqubzvrliklarning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart sharoitlarni bartaraf etish faoliyati murakkab, ammo eng muhim faoliyat yo'nalishi hisoblanadi. Shuningdek, profilaktika inspektori faoliyatida eng ko'p uchraydigan holatlar bu aholi o'rtasida aholi yashash punktida maishiy chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlash, transport vositasidan axlat yoki boshqa narsalarni tashlab yuborish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzish, shuningdek sanoat chiqindilari, maishiy chiqindilarni va boshqa chiqindilarni to'plash, tashish, zararsizlantirish, saqlash, utilizatsiya qilish, qayta ishlash, realizatsiya qilish chog'ida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzish va yana shu kabi bir



qancha huquqbazarliklarni sodir etish hisoblanadi. Bu borada, veterinariya-sanitariya sohasidagilarning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish to'g'risida taqdimnomalar kiritishning roli katta.

Profilaktika inspektorining veterinariya-sanitariya sohasidagi huquqbazarliklarni ko'rib chiqish jarayonida boshqa davlat organlari bilan hamkorligining huquqiy asoslaridagi muammolar:

1) Bugungi kunda Veterinariya-sanitariya xolatiga javob beruvchi xizmat tashkil etilmagan.
2) Uy hayvonlarinining parvarishida veterinariya-sanitariya xolati deyarli inobatga olinmaydi.

3) Ma'muriy hududlardagi umumumiyligi ovqatlanish joylari va savdo do'konlarida shuningdek boshqa joylarda veterinariya-sanitariya xizmati xodimlari bilan doimiy ravishda xamkorlikda profilaktik tadbirlar o'tkazilmasligi.

4) Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 21-moddasida keltirilgan "ogohlantirish" qanday ta'sir chorasi ekanligi aniq ko'rsatilmagan.

Ushbu muammolarni o'rjanib chiqib quyidagi takliflarni berib o'tish kerak:

1) Joylarda veterinariya-sanitariya holatiga javob beruvchi xizmatni tashkil etish.
2) Ma'muriy xududlarda sanitariya-veterinariya qoidalari va normalariga javobgar xisoblangan tashkilot va muassasalar vakolatlarini kengaytirish.

3) Veterinariya-sanitariya,davlat soliq xizmati va boshqa tashkilotlar bilan veterinariya-sanitariya xolati qoniqarsiz bo'lgan hududlarda profilaktik chora tadbirlar reydlar tashkil etish.

4) Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 282-moddasiga huquqbazarlik sodir etgan shaxsga jarimani qo'llash to'g'risidagi bayonnomani elektron tarzda rasmiylashtirish tartibi bo'yicha qo'shimcha kiritish.